

INGLIZ VA O'ZBEK FANTASTIKASINING BADIY TALQINI (SHAYXOV VA UELLS ASARLARI ASOSIDA)

Zaynudinova Dilfuza Shamsidinovna

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada fantastika janri tushunchasining ta'rifi va ushbu janrning ingliz va o'zbek yozuvchilari Gerbert Vells hamda Hojiakbar Shayxovning asarlarida ifodalanishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Fantastika, “Vaqt mashinasi”, “Ko'rinmas odam”, “Ajib yulduzlar”, “Yettinchi operatrsiya”, “Rene jumbog'i”, “G'aroyib ko'lanka”.

KIRISH.

“Fantastika” tushunchasi yunon tilidan olingan bo‘lib, “taxayyul san’ati” degan ma’noni anglatadi. Haqiqatda, fantastika - bu faqat aqlning kuchi bilan yaratilgan va haqiqiy hayotda mavjud bo‘lmagan voqealarning tasavvuridir. Garchand bu janr xayolot olaminig mahsuli bo‘lsada, bunda real voqelikning izlari sezilib turadi. Chunki xayolot olami ham shu voqelikdan quvvat olib, parvoz qiladi. Fantaziya va ijodkorlik bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va yonma-yon ketadi.

Jahon adabiyotida fantastika janrida ko‘plab yozuvchilar asarlar yozishgan. Ulardan XIX asrning 20 yillarida iste’dodli ingliz yozuvchisi Gerbert Uells ilmiy fantastika sohasida katta burilish yasadi. U Jyul Verncha qarashlarga, ijobiy optimistik yondashuvlarga psemistik ruh olib kirdi. Uning ijodining birinchi pallasida chop etilgan “Vaqt mashinasi”, “Doktor Maro oroli”, “Ko'rinmas odam” va “Olamlar jangi” kabi asarlari ilmiy fantastika janrining mavzuiy rang barangligini yanada boyitdi. [1, B-12]

Gerbert Jorj Uells ingliz yozuvchisi, siyosatchisi va faylasufi hisoblanadi. Uning romanlarida texnologiyaning dunyo ustidan qozongan g‘alabasidagi ohanrabo

tasvirlarni, shu bilan birga XX asrning daxshatli urushlarining yaqqol tasvirini ko‘ramiz. [2, B-24]

Uells qoldirgan asarlar keng va xilma-xil bo‘lib, 40 ta roman, minglab qisqa hikoyalar, o‘nlab polemik asarlar va 30 jilddan ortiq siyosiy va ijtimoiy prognozlarni o‘z ichiga oladi. Ammo jamoatchilik yozuvchini ilmiy fantastika kitoblari orqali tanishadi va ushbu janrning ijodkorlaridan biri sifatida munosib baholashadi. Uning kontseptsiyalari 20-asrning eng jasoratli tashabbuslari uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Gerbert Vellsning “Oydagi birinchi odamlar” romanini oladigan bo‘lsak, unda ilmiy kashfiyotlarni real hayotimizda qay tariqa qo‘llash masalalari yoritiladi. Yoki “Kosmosga sayohat” asari antigravitatsion kemada Oyga uyushtirilgan sayohatlar haqida, shuningdek, uning jamiyatni modellashtirish yo‘nalishidagi asarlarda aqli odamlar davlati haqida yozilgan.

Keyingi 50 yil davomida 80 dan ortiq romanlar yaratdi. Uning “Vaqt mashinas” asari 1897-yilda yaratilgan bo‘lib, unda ilmiy g‘oyalar, vaqt mashinas bilan uyushtirilgan sayohat orqali jamiyatning siyosiy hayoti mohirona tasvirlangan. Keyinroq ilmiy fantastika yo‘nalishidagi asarlarini boyitib, “Ko‘rinmas odam”, ‘Dunyo urushi”, “Buyumlar kelishining tasviri” kabi romanlarni yaratdi. Uning ko‘plab asarlari asosida kinofilmlar yaratilgan bo‘lib, ular jahon kinomotografiyasiga munosib hissa qo‘shdi. [3, B.140-145]

Uellsning “Dunyolar urushi” ilmiy-fantastik kitobi birinchi marta 1898- yilda nashr etilgan. Kitobda marsliklarning Yerga bostirib kirishi va odamlarning bosqinchilarni quvib chiqarishga urinishlari tasvirlangan. Dunyolar urushidan olingan yana bir saboq shundan iboratki, agar majburiy mustamlakachilik davom etsa, insoniyat osonlikcha qon so‘ruvchi, jirkanch marsliklarga aylanishi mumkin. Mazkur asardan halokat va falokat o‘rtasida dinni saqlab qolish mumkinmi yoki yo‘qligini o‘rganish mumkin.

Uells mashhurlikka erishgan va zamonaviy fantastikada ko‘plab oqimlarni keltirib chiqargan g‘oyalarni yaratdi. Bu mavzularga quyidagilar kiradi:

-yadroviy, kimyoviy va biologik qurollarni o‘z ichiga olgan globus janglari;

- to‘rt o‘lchovli fazo-vaqt;
- Kriyonika;
- antigravitatsiya;
- yerdan tashqari hayotning mavjudligi;
- ko‘rinmaslik;
- tanklar;
- aviatsiya;
- lazerlar.

Parallel dunyolar va ko‘rinmaslik mavzusi bugungi kunda urushda qo‘llaniladigan yangi texnologik yangiliklardan hisoblanadi. Bundan tashqari, u birinchilardan bo‘lib kelajakda jamiyatda sodir bo‘ladigan ijtimoiy o‘zgarishlar, jumladan, globallashuv, texnokratik inqilob, axborot texnologiyalarining portlovchi o‘sishi, shuningdek, ularning oqibatlari bilan bog‘liq jarayonlarni bashorat qilgan.

“ XX asrning o‘rtalarida jahon adabiyotida bu janr rivojangan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida biroz kech bo‘lsada 60-yillarning oxirida kirib keldi. Endilikda fantastika adabiyotimizda o‘z xususiyatlariga ega bo‘lgan, mustaqil janr sifatida shakllandı. Ozod Sharofiddinov yozuvchini shunday ta’riflaydi: “Agar biz bu boshlang‘ich davrni fantastikaning bahori deb ataydigan bo‘lsak, Hojiakbar Shayxov bu yo‘nalishning qaldirg‘ochi sanaladi”. [4, B.3]

Yozuvchi “Yosh Gvardiya” nashriyotida bo‘lim boshlig‘i lavozimida ishlagan va shu yerdagi faoliyati davomida uning ilk “7-SER” deb nomlangan kitobi nashr etildi. Bu kitobning nomi nechukdir badiiy asar nomiga o‘xshamas, mexanika yoxud fizikaga mansub kitobning nomiga o‘xshab ketardi. Biroq uning o‘ta “ilmiy” nomidan cho‘chimay, qo‘lga olib varaqlaganlar kitobdan hikoyalar o‘rin olganini ko‘rib hayron bo‘lishdi. Hikoyalarni o‘qiganlar esa ularning o‘zbek adabiyotida butunlay yangi hodisa ekaniga, ilm muammolari haqida badiiy shaklda mulohaza yurituvchi, ularni badiiy vositalar orqali gavdalantirishga urinuvchi asarlar ekaniga ishonch hosil qilishdi. Oradan ko‘p o‘tmay, adibning “Ajib yulduzlar” degan yangi kitobi chop etildi. Bu kitob ham fantastik hikoyalar va ilmiy badiiy ocherklardan tarkib topgan bo‘lib,

yosh adibning ilmiy fantastikaga qiziqishi o'tkinchi havas emas, balki butun umrga ketadigan astoydil mayl ekanidan guvohlik beradi. [5, B. 144-145]

Hojiakbar fantast yozuvchilar armiyasining oldingi saflaridan o'rin ola boshladi. Uning "Ajib yulduzlar", "Yettinchi operatrsiya", "Rene jumbog'i", "G'aroyib ko'lanka", "Ajdodlar xotirasi", "Olmos jilosi", "Telba dunyo" degan asarlari fantastik adabiyot sohasida sezilarli hodisa bo'ldi. Uning ayrim hikoyalari, qissalari Rossiya, Fransiya, Chexoslavakiya, Bulg'oriya, Germaniya, Ispaniya, Hindiston va boshqa mamlakatlarda turli to'plamlarda nashr etilgan. Bu dalolatlar hamma o'zbek adabiyot ixlosmandlarini quvontirmay qolmaydi, albatta, chunki har bir yozuvchining asari vatanimiz sarhadlaridan tashqarida shuhrat topar ekan, bu o'zbek xalqining dong'ini olamga yoyishga xizmat qiladi, ayni chog'da u turli madaniyatlarning yaqinlashishiga, xalqlarning o'zaro hamkorligiga yo'l ochadi. [6]

Adibning o'ttizdan ziyod ilmiy fantastik hikoyalari, qissalari va romanlari bizga ulkan ijodiy meros bo'lib qoldi. Muallifning asarlari bir necha to'plam holida nashr etildi. Xususan, "Tutash olamlar" va "Ikki jahon ovorasi" kabi romanlari chop etildi. Asarlar yaratgani sayin uning qalami o'tkirlashib borardi, jahon fantastikasi tajribalarini keng o'rgandi, o'z ustida astoydil ishlab, o'z kitobxonlariga ega bo'ldi. [7, B.14-15]. Yozuvchining "Ikki jahon ovorasi" va "Tutash olamlar" asarlari o'zbek adabiyotida yaratilgan ilk mistik romanlar hisoblanadi. Bu romanlarda ruh, ong, bizni qurshab turgan olam va ruhiyatimiz bilan chambarchas bog'liq olamlar haqida falsafiy fikrlar, qarashlarni, hayot tajribalarini qiziqarli voqealar rivoji bilan birgalikda aks ettirgan. [8]

Ozod Sharafiddinov ushbu romanning muqaddimasida o'zining fikrlarni berib o'tganlar: "Foniylar va boqiy dunyo, Koinot, Galaktika va inson hayoti shu darajada tutashib-chirmashib ketganki, bu bizda osmon qadar hayrat tuyg'usini uyg'otadi, xolos. Hayotimizda kechadigan har bir yaxshi yomon hodisa zamirida biz hali tagiga yetmagan qandaydir ilohiy qonuniyatlar mavjud. Bu qonuniyatlarni bilish uchun biz ana shu tutash olamlar, tutash taqdirlar bilan bog'liq sir sinoatlarni anglab yetmog'imiz

kerak. Bunga esa o‘ylashimcha, odamlar o‘zaro mehr-oqibat, ezhgulik, yuksak ma’naviyat va ma’rifat orqaligina erishishlari mumkin”.

XULOSA.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, har ikki adiblarni jahon adabiyotida va o‘zbek adabiyotida fantastika janrining buuuk namoyondalari sifatida ta’kidlasak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ular nafaqat ilmiy fantastikaning, balki jahon adabiyotining rivojiga ham munosib ravishda hissa qo‘shishdi. Ularning ijodiy merosi har tomonlama o‘rganishga va tadqiq etishga loyiqdir. Ularning asarlarining tarbiyaviy ahamiyati yuqori bo‘lib, kitobxonni chuqur mulohazaga boshlaydi. Shuningdek, adibimiz Hojiakbar Shayxovning ijodiy merosi yoshlarni dunyoqarashini rivojlantirishga, ularni ezgu qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sterling, Bruce. Science fiction in Encyclopedia Britannica 2008
2. Юрий Фролов. Предвидения Герберта Уэллса. — Журнал «Наука и жизнь» № 10, 2008
3. Хотамова, М. М. (2021, November). Важность Фонетики И Фонологии В Обучении Произношению На Уроках Английского Языка. In " *ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 114-119).
4. Madatovna, K. M. (2022). APPROACHES AND METHODS OF TEACHING ENGLISH: ORAL APPROACH, SITUATIONAL LANGUAGE TEACHING AND AUDIO-SPEECH METHOD. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 91-94.
5. Jabborov, N. (2021). The history of the text and some comments on its genesis. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(6), 632-636.
6. Abdulkhakimovich, J. N., & Khazratovna, X. S. (2019). THE MANUSCRIPTS OF THE NOVEL “ZUBDATU-T-TAVORIKH” BY AGAKHI AND ITS

- VALUE AS A SOURCE OF LITERATURE. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 2020.
7. Жабборов, Н. А. (1994). Исследование рукописных источников творчества Фурката (1859-1909 гг.).
 8. Jabbarov, N. (2010). What is education. *Tashkent. Ma'naviyat*.
 9. Jabborov, N. (2010). What is enlightenment.
 10. Адилова, Д., & Раджапова, Н. (2021). Развитие многоязычия в Узбекистане, выбор второго иностранного языка. *Общество и инновации*, 2(5/S), 100-103.
 11. Shadmanova, N. I., & Adilova, D. K. (2020). SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF CIVILIZATION. *Theoretical & Applied Science*, (4), 168-171.
 12. Madatovna, K. M. (2022, December). TEACHING LISTENING IN ENGLISH LESSONS IN HIGHER EDUCATION. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 9, pp. 53-57).